

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Normamatova Dilshoda Shamil qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistri dilshodanormamatova7@gmail.com

tel: +998942890125

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi yoritiladi. Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali bolalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni yechish va innovatsion yondashuvni shakllantirish imkoniyatlari ilmiy tahlil qilingan. Misol sifatida interfaol usullar, vizual vositalar va raqamli texnologiyalar o'quvchilarning qiziqish va faoliyatini oshirishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, boshlang'ich ta'lim, ijodkorlik, innovatsiya.

Annotation: This article discusses the issue of developing the creative abilities of primary school students. The use of modern pedagogical technologies in education has scientifically analyzed the possibilities of developing creativity, independent thinking, problem solving and innovative approaches in children. As an example, the role of interactive methods, visual aids and digital technologies in increasing students' interest and activity is revealed.

Keywords: creativity, pedagogical technologies, interactive methods, primary education, creativity, innovation.

XXI asrda ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri — ijodkor, tashabbuskor, yangilikka intiluvchi shaxsni tarbiyalashdir. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda poydevor hisoblanadi. Shu bois o'quvchilarning kreativligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda.

Pedagogik amaliyotda o'quvchilar kreativligini rivojlantirish uchun "Aqliy hujum", "Rolga kirish", "Insert", "Klaster" kabi interfaol metodlardan keng foydalanish mumkin. Bu usullar o'quvchilarni faollikka chorlaydi, ularning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi. Masalan, "Aqliy hujum" metodi orqali o'quvchilar erkin ravishda g'oya bildiradilar, fikrlar xilma-xilligidan samarali yechimlarni tanlashni o'rganadilar. "Klaster" metodi esa mavzularni vizual tarzda ko'rsatib, o'quvchilarda tizimli tafakkurni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, bugungi kunda raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga joriy etish o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda samarali vositaga aylanmoqda. Elektron taqdimotlar, interaktiv doska, onlayn testlar va multimediali topshiriqlar o'quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki yangicha fikr yuritishga undaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan turli didaktik o'yin dasturlari ularning tasavvurini kengaytirib, mustaqil izlanishga ilhomlantiradi.

O'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar o'z g'oyalarini bimalol ifodalashga, erkin fikrlashga, ijodiy

mahsulot yaratishga intiladilar. An'anaviy darslarda esa bu ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmaydi. Shunday ekan, kreativlikni rivojlantirish uchun pedagog o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda texnologiyalarni tanlashi, darsni qiziqarli va mazmunli tashkil etishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali o'quvchilar bilimni faqat o'zlashtiribgina qolmay, balki yangi g'oyalar ishlab chiqishga, ijodiy yondashuvni hayotga tatbiq etishga o'rgatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saidov U. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. To'xtaboyev M. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Xolmatova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodkorligini rivojlantirish metodlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
4. G'ulomov A., Usmonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.